

## **Yangi yil qutlovi**

Tabriklashning gashtidan bahramand bo'lganlarning quvonchi cheksiz. O'zaro tabriklar samimiyatga yo'g'rilmagan bilan har ikkala tomonni ham maftun etadi.

Bugun, 2017 yil 22 dekabr kuni "O'zdavrloyiha" ilmiy-loyihalash institutining bir guruh mutaxassislari "Erdan foydalanish va yer kadastri" fakulteti talabalari hamda professor o'qituvchilari jamoasini kirib kelayotgan yangi yil bilan tabriklash maqsadida institutga tashrif buyurishdi.

Ishlab chiqarish korxonalari va institut bilan uzviy aloqalarni mustahkamlash maqsadida fakultetining 3 va 4 kurs talabalari bilan tashkil etilgan tantanali marosimda loyiha institutining bosh muhandisi R.I.Jo'raev talabalarni va jamoani yangi yil bilan tabrikladilar. Iqtidorli va shu kasbga bugundan mehr qo'yayotgan talabalardan 2 nafarini moddiy rag'batlantirildi hamda kafedralarga qo'mita tomonidan nashr etilgan yangi kitoblardan sovg'a qilindi.

Uchrashuv talabalarda va fakultet jamoasida iliq taassurot qoldirdi.

**"EF va YeK" fakulteti dekani muovini Sarvar Abduraxmonov axboroti**

**Institut matbuot kotibi: Rahimboy Jumaniyozov**